

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA OID QONUN NORMALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abdusalimov Ma'murjon To'ychi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar rivojlanish tarixi, javobgarlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarda javobgarlikka tortish masalalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashishga oid jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, jinoyat kodeksi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, xususiy mulk, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari, jinoiy javobgarlik.

KIRISH

Mulk hamda mulkiy huquq alohida e'tiborga molik bo'lganligi uchun kishilik jamiyati rivojining barcha bosqichlarida asosiy masalasiga aylangan. Tadbirkorlikka to'sqinlik qilish, unga noqonuniy aralashish bilan bog'liq jinoyatlar negizida shaxsning mulk huquqiga daxl qilish, uning mulkiy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish yotadi. Shu sababdan mulk huquqi va mulkiy munosabatlar har bir davrda nafaqat huquqiy, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mazmun kasb etgan.

Tarixan mulk hamda mulkiy huquq rivoji insoniyat rivojiga uzviy bog'liq kechgan. Negaki, hamma zamonlar va makonlarda jamiyatning evolyutsion va revolyutsion taraqqiyotida mulk ijtimoiy mavqeni belgilashning asosiy vositalaridan biri hisoblangan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyati sub'ekti o'zi yaratayotgan ishchi o'rni va ishlab chiqarayotgan mahsuloti bilan davlat va jamiyat rivoji uchun hissa qo'shar ekan, o'z navbatida, u ham huquq va qonuniy manfaatlarini munosib himoyalashiga haqlidir. Bu borada biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratish, tadbirkor o'z faoliyatini moneliksiz amalga oshirilishini ta'minlash asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekistonda mazkur sohada muqobil hamda rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor qilish, tadbirkorlik sohasidagi litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillarining qisqartirilishi va soddalashtirilishi ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga, shuningdek Doing Business reytingida 146-o'rindan 76-o'ringa ko'tarilishiga zamin yaratdi¹.

Biroq, tadbirkorlik faoliyati sohasida qator tizimli muammolar mavjudki, ularning aksariyati tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kafolatli ta'minlash borasida nazorat, huquqni muhofaza qilish hamda boshqa davlat organi yoki davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi faoliyati bilan bog'liq bo'lmoqda.

Xususiy mulk hamda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga bo'lgan yondashuvning bugungi kun talablariga javob bermasligi nazorat organlari va qonunga itoatkor tadbirkorlar o'rtasida ishonchli hamkorlik o'rnatishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa zamon talablariga javob bera olmaydigan ayrim huquqiy mexanizmlarning mavjudligi sababli soliq, boshqa majburiy to'lov, penya va moliyaviy jarimalar bo'yicha qarzdorliklar sun'iy yo'l bilan yig'ilib borishiga hamda tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishiga olib kelayotgan davlat organlarining samarasiz, ortiqcha nazorat funksiyalari amal qilayotganligida ko'rinadi². Ushbu holat tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish

¹ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июлдаги “Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5490-сонли фармони. <https://lex.uz/docs/3839746>

hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq qilmishlarning kriminalizatsiya qilinishi³ o'z vaqtida ijtimoiy zarurat sifatida yetilganligini ko'rsatadi.

Mulkka, tadbirkorlik faoliyatiga tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalar rivojlanish tarixi mulk huquqining daxlsizligi hamda uning himoya qilinishi bilan bevosita bog'liq kechgan. Mulk huquqini himoya qilishning ijtimoiy zaruratini o'rganish kishilik jamiyati rivojining turli bosqichlarida mulkka va mulkiy huquqqa munosabatning shakllanishidan kelib chiqqan.

Jumladan, ibtidoiy jamoa davrida o'zaro mehnat natijasida qo'lga kiritilgan mulk qabila yoki urug'ga tegishli bo'lgan bo'lsa, ziroatchilik va chorvachilik hisobiga mehnat unumdorligining o'sishi evaziga muayyan oilaga tegishli mulk shakli paydo bo'la boshladi. Mulkiy tengsizlik taraqqiyotning navbatdagi bosqichini boshlab berdi.

Xususiy mulk haqidagi dastlabki huquqiy qarashlarning shakllanishi antik davrga borib taqaladi. Jumladan, m.a. 1792 – 1750 yillarda qadimgi Bobilda hukmronlik qilgan Xammurapi qonunlari to'plamida mulk huquqini hamda uning turli shakllari – podshohlik, ibodatxona, jamoa va shaxsiy mulk mavjud bo'lishini belgilagan. Mulk egasi uni, xususan yerni sotishi, ijaraga berishi, meros qilib qoldirishi mumkin bo'lgan, biroq qonunlar to'plamida mulkka nisbatan cheklov yoki taqiq uchramaydi⁴.

Rimda yerga nisbatan davlat va jamoa egaligi, boshqa mulk shakllariga nisbatan esa shaxsiy egalik o'rnatilgan. XII jadval qonunlarida mulkka bo'lgan huquq *dominium* atamasi bilan ifodalangan bo'lsa, keyinchalik milodning III asridan boshlab Rimda xususiy mulkka nisbatan *proprietas* atamasi qo'llanila boshlandi⁵. Bu faqat atamaning o'zgarishi bilangina emas, balki uning huquqiy tabiati bilan ham bog'liq edi. Xususan, *proprietas* atamasi *dominium* atamasiga

³ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига хусусий мулкни, тadbirkorlik субъектларини ишончли ҳимоя қилишни янада кучайтиришга, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этишга қаратилган ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни. <https://www.lex.uz/acts/2724496?ONDATE=21.08.2015%2000#2725462>

⁴ Vseobshaya istoriya gosudarstva i prava: Uchebnik/Pod. red. prof. K.I. Bатыга. М., 1998. S.56.

⁵ <https://jurisprudence.club/pravo-grajdanskoe/istoriya-ponyatiya-sobstvennosti.html>

qaraganda birmuncha kengroq, ayniqsa *proprietas* mulk huquqi ustuvorligi, mutloqligi va daxlsizligini anglatar edi⁶. Yustinian kodekslarida ham xususiy mulkka nisbatan shunday yondashuvni ko'rish mumkin. Undagi *plena in re potestas*⁷ mulkka nisbatan mutloq egalik, daxlsizlik va hokimiyat mazmunini anglatadi.

Rim huquqshunoslari xususiy mulkni “muqaddas mulk” deb hisoblab, uning daxlsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishgan⁸.

Mulk huquqi ilk o'rta asrlarda islom dini manbalari asosida muhofaza qilingan. Milliy davlatchiligimiz tarixida islom huquqi manbalari asosida boshqarilgan o'rta asrlardagi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlati o'ziga xos o'rin tutadi. So'z yuritilayotgan masalada bu davlatlarda islom huquqi manbalariga rioya etilishi birlashtirib turgan. Shu jihatdan, ushbu davrda mulk va mulk huquqining belgilanishi, mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanishi tarixini tahlil qilishda islom huquqining manbalari – Qur'oni karim, Sunna, ijmo' va qiyosga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Qayd etilganidek, ushbu davrda islom huquqi manbalari, xususan Qur'oni karim asosiy huquq manbai bo'lgan. Bu borada tadqiqot olib borgan A.Sh.Juzjoniyy Muhammad Yusuf Musoga tayanib Qur'oni karimda jami 333 ta huquqiy oyat bo'lib, jumladan muomalat yoki fuqarolik huquqi bo'yicha 70 ta, jinoyat va jazo bo'yicha 30 ta bunday oyat mavjudligini keltiradi⁹.

Qur'oni karimda mulk huquqini muhofaza qilish, mulk huquqiga tajovuz qilishning ulkan gunoh ekanligi to'g'risida oyatlar bayon qilingan. Jumladan, Baqara surasida “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang”, deb marhamat qilingan¹⁰. Hadisi shariflarda ham mulk huquqiga tajovuz qilish og'ir

⁶ Быков А.С. Stanovlenie i razvitie instituta prava sobstvennosti. <https://cyberleninka.ru/article/n/stanovlenie-i-razvitie-instituta-prava-sobstvennosti>

⁷ ДиГЭСты Юстиниана. Избранные фрагменты в переводе и с примечаниями И.С.Перетерского. М., 1984. С. 45.

⁸ Topildiev V. Rim huquqi. -T: M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – T., 2006.-95-96 b.

⁹ Juzjoniyy A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari (mas'ul muharrirlar: A.X.Saidov, A.Mansur). – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002. B.65.

¹⁰ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2014. B.45.

gunoh ekanligi uqtirilib, kishilar bundan qaytarilgan. Jumladan “Nabiy s.a.v. ...talonchi molni tortib olayotganda odamlar unga ko‘zlarini tikib, qarab qolganlarida mo‘min bo‘lmas”; boshqa bir hadisda esa “Kim molini himoya qilayotib qatl etilsa, shahiddir...”¹¹ deb keltirilgan.

Shuningdek, ushbu davrda savdogarlarning hayoti va mulkiga bo‘lgan tajovuzlarga qarshi kurash shunchalik qat’iy bo‘lganki, hatto janozasi o‘qilmaydigan to‘rt toifa shaxslarning biri ham aynan savdo karvoniga hujum qilgan qaroqchilar bo‘lgan. Bu haqda Hidoyada quyidagicha keltirilgan: ...to‘rt kishiga: bog‘iyga, yo‘lto‘sarga, tarafkashlarga va shaharda ochiqdan-ochiq qurol ila tajovuz qiladiganlarga janoza namozi o‘qish farz emasligi keltirilgan. Musulmonlarning yo‘lini to‘sib, kuch ishlatib molini tortib olishni qasd qilganlarga ham janoza namozi o‘qilmaydi. Shaharda ochiqdan-ochiq qurol ishlatib tajovuz qiladiganlar ham yo‘lto‘sarlarga o‘xshab ketadilar. Ularning ham janozasi o‘qilmaydi¹².

Boshqa bir shaxsning mulkiga tajovuz qilish qilish og‘ir gunoh bo‘lish bilan birga, mulkini himoya qilib vafot etgan shaxs shahid maqomiga tenglashtirilgan. Shuningdek, islom huquqida “barcha mol-mulk Allohnik” aqidasi mustahkam o‘rin egallaganligi, mulkdor huquqlarini muhofaza qilishning ustuvorligiga alohida ahamiyat berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Temur tuzuklari”da mamlakat hududida mol-mulkka tajovuz qilish taqiqlanganligi va taqib qilinganligini quyidagi parchadan ko‘rish mumkin:“... Va yana buyurdimki, yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birortasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin. Amr etdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig‘i, uy solig‘i olmasinlar. Sipohiylerden biron kishi ra‘iyatning xonadoniga zo‘rluk bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovini tortib olmasin”¹³.

¹¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 11-juz. Savdo, ziroat va vaqf kitobi. 1174-1175-hadislari.

¹² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Kifoya”. Toshkent, “Sharq” nashriyot matba-aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2008, 1-juz. B. 249.

¹³ Temur Tuzuklari. So‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir M.Ali, forschadan tarj. A.Sog‘uniy va H.Karomatov. – www.pedagoglar.org 6-to‘plam 2-son aprel 2024

Bu esa ushbu paytda markazlashgan davlatdagi jinoiy-huquqi siyosat, xususan savdo karvonlarining xavfsizligi, ularning sog'lig'i, hayoti va mol-mulki muhofazasiga alohida ahamiyat qaratilganligini bildiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, mulk huquqi va mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilishda "Hidoya" muhim manbalardan biri hisoblangan. Unga ko'ra mulkni egallash huquqi isbotlash vositalaridan biri bo'lib, ashyo kimningdir egaligida mustahkamlangan bo'lmasa, unda tuzilgan bitimlar haqiqiy hisoblanmagan¹⁴.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib mulk huquqi va mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi hammavaqt dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Agar huquq va davlat rivojining oldingi bosqichlarida mulkka bo'lgan tajovuzga qarshi kurash ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatidagina qaralgan bo'lsa, yangi mingyillikda u ijtimoiy zarurat, barqaror iqtisodiyot asosi sifatida e'tirof etila boshlandi. Tadbirkorlik sub'ektlarini jinoyat-huquqiy mexanizmlar vositasida muhofaza qilish tendensiyasi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, ularga qulay shart-sharoit yaratish, shuningdek mamlakat aholisining ish bilan bandligini ta'minlash ko'rsatkichlarini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarligining ta'minlanishiga olib kelmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy mustaqillik - Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga

Toshkent: Sharq, 2005. – B.57.

¹⁴ Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava: v 2 ch. Ch. 2 T. III-IV / Burxanuddin Marginani; Pod red.: Grodekov N.I.; Predisl. i vstup. st.: Saidov A.X. - M.: Volters Kluver, 2010. S. 267.

bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5484>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori.

6. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.05.2012y. O'RQ-328-son).

7. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012y.)

8. "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019y).